

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMADJANOVA MAFTUNAXON UKTAMOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG‘ISHTIRMA
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

UO‘K: 811.512.133’255.2+811.111’255.2

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertatsion abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Mamadjanova Maftunaxon Uktamovna

U‘zbek va ingliz tillarida epitetning chog‘ishtirma tadqiqi.....3

Mamadjanova Maftunaxon Uktamovna

A contrastive study of epithets in Uzbek and English languages.....25

Мамаджанова Мафтунахон Уктамовна

Сопоставительное исследование эпитетов в узбекском и английском
языках.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ.....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMADJANOVA MAFTUNAXON UKTAMOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG‘ISHTIRMA
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/FilB167 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gafurova Surayyo Ulugbekovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nabiyeva Dilora Abduxamidovna
filologiya fanlari doktori, professor

Vositov Valijon Abduvahobovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «15» mart soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'ioniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (467 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: +99873 244-44-94

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «26» fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil «26» fevral dagi 6 raqamli reestr bayonnomasi)



S.M.Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til hodisalari dastlab sistem-struktur paradigma bo'yicha o'rganilgan bo'lsa, keyingi davrlarda esa ijtimoiy ong taraqqiyoti hamda insoniyatning hayotiy va ilmiy ehtiyoji bois uni qiyosiy yo'nalishda tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tillararo aloqalarni fanning yangi metodologiyasi va zamonaviy fan yo'nalishlari – sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabilar bo'yicha tadqiq etish muhim masalalardan biriga aylandi. Ilmiy izlanishlarning natijalaridan turli tillarga doir lingvistik hodisalarni morfologik-struktur, semantik hamda xalq tafakkuri, dunyoqarashi, e'tiqodi va madaniyati bilan o'zaro bog'liqlikda tadqiq etishda bir qator o'rganilmagan muammolar borligi ma'lum bo'lib qoldi. Shunday masalalardan biri o'zbek va ingliz tillaridagi epitetlarning morfologik, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etish bo'lib, bu masala xalqlarning hozirgi globalashuv davrida juda dolzarblik kasb etib turibdi.

Dunyo tilshunosligida epitetlarni o'zida ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-ma'naviy, adabiy axborotni saqlovchi, semantik va lingvomadaniy jihatlarni o'zida to'liq namoyon etuvchi badiiy til vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ular boshqa lingvomadaniy birliklar – metafora, o'xshatish, maqol, iboralar kabi tilning bebaho boyligi hisoblanadi, til egalarining xotirasida muntazam saqlanib turadi va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida abadiy mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra o'zbek va ingliz tilshunosligida epitetlarni zamonaviy metodologiya va metodlar bo'yicha o'rganish, ularning lingvistik tabiati, badiiy matndagi o'rni yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish, semantik, lingvomadaniy aspektlarda tahlil qilish, mantiqiy, lisoniy hamda morfologik-struktur xususiyatlarini yaxlit tadqiq etish kabilar yechimini kutayotgan muhim masalalardan sanaladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda boshqa tillarning grammatik, leksik-semantik, lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini diaxron va sinxron aspektda qiyosiy o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratildi, "ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga"¹ alohida e'tibor qaratildi. Biroq til va nutqda faol qo'llanishda bo'lgan, badiiy adabiyotning eng muhim tasviriy vositasi sifatida voqelanadigan, xalq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan epitetlarning turli tillar doirasida leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish, uning yuzaga kelishida ahamiyat kasb etgan til imkoniyatlarini tahlil etib chiqish, ularning morfologik jihatlarni tadqiq etish, shakllanish manbalari va qonuniyatlari hamda xalq madaniyati bilan bevosita bog'liqligi masalalarini aniqlash bo'yicha keng qamrovli va teran tadqiqotlar olib borilgan emas. Mazkur muammolar yechimini ijtimoiy davr talab etib turar ekan, bunday ishlar yaratilishi faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix, estetika, etnografiya kabi fanlar, umuman, jahon madaniyati va ijtimoiy tafakkuri uchun ham juda muhim sanaladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi va O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” gi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 2019-yil 4- oktabrdagi Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarorlari, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy-nazariy fikrlar xorijiy lingvistlar A.A.Potebnya, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Skrebnev, A.N.Veselovskiy, M.D.Kuznes, I.R.Galperin, M.Greviss, T.A.Burkova, N.M.Naer, V.I.Korolkov, S.Gubanov, T.Fadeyeva, T.M.Guseva va boshqalarning tadqiqotlarida uchraydi². Eпитetni ta’riflashda olimlar ikki guruhga bo‘linadilar. A.A.Potebnya va Y.M.Skrebnev kabi tilshunos olimlar epitetni trop emas, balki fikrga mazmundorlik beruvchi nutq figurasi, deb talqin etsalar, A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, I.R.Galperin, I.V.Arnold va boshqalar epitetni troplar kesimida tasvirleydilar. Ular epitetni ko‘chma ma’no hosil bo‘lish hodisalari qatoriga qo‘shib talqin etadilar hamda unda yangi sema yuzaga kelishini ta’kidleydilar. Ushbu olimlarning epitet haqidagi fikrlari bir-biridan keskin farq qiladi.

Ingliz va nemis tilshunosligida epitet masalasi, uning tabiati, izohi, shakllanish mexanizmi va manbalari B.G.Sovinskiy, D.Kristal, K.Ueyls, J.Mayers

² Grevisse M. *Le bon usage // Grammaire française*. – Ed. Duculat A Geuthner, 1951; Галперин И.Р. *Очерки по стилистике английского языка*. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958; Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. *Стилистика английского языка: пособие для студентов*. – Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1960; *Краткая литературная энциклопедия*. Т8. – М.: Советская энциклопедия, 1975; Веселовский А.Н. *Историческая поэтика*. – М.: Высшая школа, 1989; Гусева Т.М. *Сложный эпитет как стилиобразующая единица художественного пространства И.А.Бунина*. – М., 2001; Буркова Т.А. *Stilistik der deutschen Sprache*. *Стилистика немецкого языка: Учебно-методическое пособие*. – Уфа, 2002; Скребнев Ю.М. *Основы стилистики английского языка*. – М.: Астрель, 2003; Потебня А.А. *Теоритическая поэтика*. – М.: Академия, 2008; Жирмунский В.М. *Теория литературы. Поэтика. Стилистика*. – М.: Либроком, 2009; Губанов С.А. *Эпитет в творчестве М.И.Цветаевой: семантический и структурный аспекты*. – Самара, 2009; Наер Н.М. *Стилистика немецкого языка: учеб. пособие*. – М.: Высшая школа, 2011; Фадеева Татьяна Михайловна. *Сложный эпитет ядерная единица художественного пространства в русском языке*. – М., 2014.

va D.Vukay, A.R.Harris hamda Daniel Walden³ kabilarning tadqiqot va lug‘atlarida yoritilgan.

O‘zbek tilshunosligida epitetning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari, shuningdek, turli tizimli tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida monografik tarzda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, B.Umrqulov, M.Yo‘ldoshev, S.Karimov, M.Abdupattoyevlarning doktorlik⁴, S.A‘zamov, D.Zayniddinova, Sh.Abdurahmonov, E.Ibragimova, O.Mamaziyayev, D.Jamoliddinova, S.Umirova, O.Tursunova, G.Qobuljonova, N.Sadinovalarning nomzodlik dissertatsiya⁵larida, R.Qo‘ng‘urov, A.Shomaqsudov, O.Dadaboyev, N.Mahmudov, I.Mirtojiev, I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xudoyberganova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘zbek tili lingvopoetik masalalarini yoritish bilan bir qatorda badiiy tasvir vositalari trop va sintaktik figuralarning o‘ziga xos belgilariga urg‘u berilgan, shuningdek, epitetning mohiyatiga qisqacha to‘xtalgan. Bundan tashqari, A.Nurmonov, N.Mahmudov, X.Abdurahmonov, A.Mamajonov, M.Qurbonova, G.Roziqova, H.Do‘smatov, U.Nosirova, N.Bazarboyevalarning ilmiy tadqiqotlarida ham bu hodisaga e‘tibor qaratiladi. D.Xo‘jayeva epitetni unga yondosh hodisalar bilan qiyoslaydi hamda ulardan farqli tomonlarini tadqiq etadi⁶. I.Boltayeva esa o‘zbek xalq dostonlarida epitetni qo‘llanish doirasini aniqlab, xalq dostonlarida epitet qo‘llashda shakllangan epik an‘ana va bu an‘analarning xalq baxshilari ijodida saqlanib qolish darajalarini yoritib beradi⁷. Shunga qaramay, epitetning lingvistik tabiati to‘liq tadqiq etilmagan, qiyosiy jihatdan monografik planda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universitetining “Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari” yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

³ Sowinski B. Deutsche Stilistik. Fischer Taschenbuch Verlag. – Berlin, 1992; Crystal D. A Dictionary of Language. 2nd edition. University of Chicago Press, – Chicago, 2001; Wales K. A Dictionary of Stylistics. Pearson Education Limited. – London, 2001; Myers J., Wuckasch D. Dictionary of poetic terms. University of North Press Denton, – Texas, 2003; Harris A.R. A Handbook of Rhetorical Devices. BibTex. – London, 2010; Daniel O.Walden. To sing the deeds of Men. University of Michigan. – Michigan, 2021.

⁴ Умуркулов Б. Ўзбек бадий прозаси тилининг лугавий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Тошкент, 1994; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент, 1994; Йулдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент, 2009; Абдулаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Фарғона, 2021.

⁵ Аъзамов С. Эпитет в узбекском языке. (Поэзия): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1974; Зайниддинова Д. Рус ва ўзбек тилларида ғайриодатий бирикмалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990; Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулги кўзгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004; Жамолитдинова Д. Бадий нутқида парантез бирикларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Умирова С. Узбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Фил. фанл. б. фалс. д-ри. ((PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2019; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирикларининг поэтик имкониятлари: Фил. фанл. б. фалс. д-ри. ((PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019; Садинова Н. Бадий матнларда контрастнинг лингвопрагматик хусусиятлари (Анвар Обиджон, Усмон Азим, Аъзам Ўктам асарлари мисолида): Фил. фанл. б. фалс. д-ри. ((PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

⁶ Хужаева Д.Ш. Ўзбек тилида эпитет: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996.

⁷ Болтаева И. Ўзбек халқ дostonларида эпитет табиати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi epitetlarning morfologik, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida lingvistik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

epitetlarning funksional va semantik mohiyatini baholash, ularni nutqda hosil bo‘lish sabablarini tadqiq etish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi epitetlarning shakllanish manbai va mexanizmlarini aniqlash, tavsiflash hamda tarkibidagi birliklarni morfologik, semantik va lingvomadaniy jihatlariga ko‘ra tahlil qilish;

epitetlarning o‘xshatish va metaforaga munosabatini izohlash, ularning badiiy matndagi ahamiyatini ko‘rsatish hamda obrazlilik va ta’sirchanlikni voqelantiruvchi asos ekanini dalillash;

o‘zbek va ingliz she’riy hamda nasriy asarlaridagi epitetlarni aniqlash, ularning semantik tabiatini yoritish, epitetlarni semalar reallashuviga ko‘ra tasniflash;

epitetlar muayyan jamiyat kishilarining milliy-madaniy hayoti bilan bevosita bog‘liq ekanligini asoslash, ular o‘zbek va ingliz xalqlarining eng qadimiy va muhim lingvomadaniy birligi ekanini tegishli materiallar bilan dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida o‘zbek va ingliz tillarida yaratilgan she’riy, nasriy hamda publisistik asarlarda qo‘llanilgan epitetlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini esa chog‘ishtirilayotgan tillardagi epitetlarning morfologik, semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasviriy, tasniflash, diaxron va sinxron tahlil, qiyoslash, lingvomadaniy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tilidagi epitetlarning yuzaga kelish sabablari, lisoniy manbalari, shakllanish mexanizmi, lingvistik tabiati, badiiy matndagi o‘rni, funksiyasi hamda ahamiyati aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillarda epitetlar morfologik jihatdan tasnif etilib, o‘zbek tilida ot, sifat, fe‘l va ravish so‘z turkumlarida; ingliz tilida esa ot so‘z turkumi, tub sifatlar, yasama sifatlar, qo‘shma sifatlar va ularning bir nechta modellari, sifatning qiyosiy va orttirma darajalari, hozirgi zamon sifatdoshi, o‘tgan zamon sifatdoshi hamda hozirgi va o‘tgan zamon sifatdoshining predlog bilan qo‘llanilishi orqali yuzaga kelishi mumkinligi asoslangan;

o‘zbek va ingliz tillarida epitetlarning semantik tabiati tadqiq etilib, hayvon, o‘simlik, kimyoviy element hamda ayollar bezakli taqinchoqlari, kichik asbob, mato, qimmatbaho tosh va osmon jismlari nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar guruhi aniqlanib, har ikki tilda ularning turli semalar orqali reallashishi isbotlangan;

o‘zbek va ingliz tillarida yuzaga kelgan epitetlar mutlaqo milliy xarakterga ega ekanligini aniqlangan. Chog‘ishtirilayotgan tillarda hayvon, o‘simlik, kimyoviy element hamda osmon jismlari nomlarini anglatuvchi leksemalar bilan

yuzaga kelgan epitetlarning o‘zbek va ingliz xalqlarida turli xil bo‘yoqlarga ega ekanligi, semantik mohiyat-mazmuni lingvomadaniyat bilan bevosita bog‘liqligi faktik materiallar asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda o‘zbek va ingliz she‘riy hamda nasriy asarlaridagi epitetlar lingvistik tabiati va badiiy mohiyati, morfologik, semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlariga ko‘ra tavsiflanib, turli semantik guruhlar bo‘yicha tasniflangan;

o‘zbek va ingliz tillidagi epitetlar shu xalqlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, diniy e‘tiqodi, tarixi, mentaliteti bilan bevosita bog‘liqligi asoslangan;

tadqiqotda o‘zbek va ingliz tilidagi epitetlarning qiyosiy-chog‘ishtirma aspekti bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosalar nazarda tutilgan birlikni tarjima qilish tamoyillari uchun badiiy tarjima sifatini yanada yaxshilashda muhim manbalardan biri bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘yilgan muammo tadqiqiga mustaqillik mafkurasi va g‘oyalari talablari asosida ilmiy jihatdan xolislik mezoni bilan yondashilganligi, muammo aniq belgilanganligi, talab darajasida ilmiy asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy, badiiy manbalardan olinganligi, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning mavjudligi, xulosalarning amaliyotda joriy etilganligi, ular mazmun-mohiyatida keyingi davr tilshunosligida voqelanayotgan zamonaviy ilmiy tafakkurga asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz tillarining morfologik, semantik, lingvopoetik, leksikografik va lingvomadaniy xususiyatlarini, badiiy matnda epitetlarning o‘rni, shakllari, semantik va lingvomadaniy jihatlarini hamda badiiy-estetik vazifalariga daxldor masalalarni tadqiq etishda ilmiy-nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning ilmiy-faktik materiallaridan oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o‘zbek va ingliz tilshunosligining uslubshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, nutq madaniyati va badiiy matnning lingvistik, lug‘aviy-badiiy, lingvomadaniy tahlilini amalga oshirish, tillarning chog‘ishtirma grammatikasiga doir fanlarni o‘qitish, epitetlar bo‘yicha ikki tilli izohli lug‘atlar yaratish, ilmiy va badiiy tarjima bilan bog‘liq muammolarni hal etish, amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, tanlanma kurslar hamda seminarlar tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz tillaridagi epitetlarning morfologik, semantik hamda lingvomadaniy tahlili tadqiqi jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

o‘zbek va ingliz tillarida epitetning semantik tabiati, xususan, qiyoslanayotgan tillarda hayvon, o‘simlik, kimyoviy element hamda ayollar bezakli taqinchoqlari, kichik asbob, mato, qimmatbaho tosh, osmon jismlari nomlari yordamida yuzaga kelgan epitetlarni semalar reallashuviga ko‘ra tahlili hamda ularni o‘zbek va ingliz tillarida turli mazmunlar orqali hosil bo‘lishini

she'riy va nasriy asarlardan keltirilgan misollar orqali asoslanishiga doir xulosa va ilmiy natijalaridan 2023-2024-yillarga mo'ljallangan №IL-662205561 raqamli "Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish ("Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi g'azallar asosida)" mavzusidagi amaliy loyihada "O'zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug'ati"ni yaratishda hamda Alisher Navoiyning g'azallari tarkibidagi epitetlar va ularning morfologik xususiyatlari, semantik tabiati izohlangan fikrlardan ikki tilli lug'at tuzishda samarali foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-iyuldagi 04/1-1716-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasida tayyorlangan lug'atlar, ilmiy maqolalar hamda monografiyalar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

o'zbek va ingliz tillaridagi epitetlarning yuzaga kelish sabablari, lisoniy manbalari, shakllanish mexanizmi, lingvistik tabiati, badiiy matndagi o'rni, funksiyasi hamda ahamiyati borasidagi tadqiqi, ularning o'zbek va ingliz tillarida morfologik jihatdan tasnifi, nutqda epitetlar yordamida obrazlilik va ta'sirchanlikni voqelantirish, ikki xalqning o'zaro bir-birlarining madaniyati, mentaliteti, e'tiqodi, an'analari, qadriyatlarini kengroq anglash haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida o'zbek tilining mavqeyini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, targ'ibot-tashviqot ishlari uchun ma'ruzalar tayyorlash hamda ijodkor yoshlar uchun turli seminarlar va tadbirlar tashkil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining Farg'ona viloyati yoshlar ishlari boshqarmasining 2024-yil 26-iyundagi 02-22/476-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillaridagi epitetlarning lingvistik xususiyatlari, badiiy matndagi o'rnini o'rganish, uning qiyoslanayotgan tillarda so'z turkumlarida ifodalanish modellari hamda lingvomadaniy talqinlarining ilmiy ta'minotini yoritib borish kabi amaliyotlarda manba sifatida tadbiriq etildi. Tadqiqot natijalari barkamol shaxsni tarbiyalash va ular ongiga milliy mustaqillik g'oyasini singdirish, shuningdek, ularni milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga qiziqish uyg'otish masalalarida muhim asos bo'lib xizmat qiladi;

o'zbek va ingliz tilidagi yuzaga kelgan epitetlarning lingvistik tabiati, badiiy matndagi o'rni hamda muhim xususiyatlari haqidagi xulosalardan Farg'ona davlat universiteti "EMI (English as a Medium of Instruction)" xalqaro loyiha doirasida samarali va keng foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 2-iyuldagi 04/3564-son ma'lumotnomasi). Natijada adabiy til, madaniyat va badiiy san'atlar taraqqiyotida epitetlarning tutgan o'rnini belgilash hamda xalqaro loyiha doirasida tashkillangan seminar va treninglarning bu xususdagi mazmunini boyitilishiga asos bo'ldi;

o'zbek va ingliz tillaridagi epitetlar orqali nutqda obrazlilik va ta'sirchanlikni voqelantirish hamda millat madaniy hayotini chuqurroq tushunish, o'zbek va ingliz tillaridagi epitetning morfologik, semantik va lingvomadaniy jihatdan tadqiqi, ikki xalqning o'zaro bir-birlarining madaniyati, mentaliteti, e'tiqodi, an'analari kengroq anglash haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalaridan 2024-yilning

mart va may oylarida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston Yoshlari” nomli eshittirishlar ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-iyundagi 04-36-778-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 159 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda epitetli birikmalar talqini**” deb nomlangan birinchi bobi ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli “Epitet nazariyalarining tarixiy taraqqiyoti va uni o‘rganishning nazariy asoslari” deb nomlanadi.

Epitet nutq hodisasi bo‘lib, u haqida juda qadimdan beri ko‘plab olimlar o‘zlarining turli-tuman nuqtai nazarlarini bildirishgan. Epitet haqida aytilgan fikrlar qachondan boshlanganini aniq aytish qiyin, lekin bu so‘zni ilk bor Aristotel va Kvintilian o‘z asarlarida ishlatilganligi haqida ma’lumotlar bor. Aristotel va uning zamondoshlari davridagi antik ritorikaga bag‘ishlangan asarlarda epitet metafora atamasi bilan qorishtirib tahlil qilingan⁸. XV asrning ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunosi Ataullo Husayniy epitetni mumtoz adabiyotda qo‘llaniladigan istiora atamasi bilan izohlaydi⁹. Ammo hozirgi davr adabiyotshunosligida istiora tushunchasi ayni metafora atamasiga teng qilib qo‘yilgan. Ataullo Husayniy esa metafora va metonimiya hodisalarini majoz atamasi ostida talqin qiladi. Ko‘rinib turibdiki, sharq adabiyotshunosligida ham epitetlar alohida o‘rganilgan. XIX asr g‘arb tilshunoslarining asarlarida “epitet” terminini ko‘chma ma’no hosil bo‘lish

⁸ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Гофур Фулом, 1980. – Б. 44.

⁹ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ф.Фулом, 1981. – Б. 219-220.

hodisalari qatoriga qo‘shib talqin etish bilan birga, ayrim ko‘chma ma‘no hosil bo‘lish hodisalariga qiyoslangan¹⁰. Ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishi ko‘proq til hodisasi bo‘lgani holda, epitet nutq hodisasi. O‘zbek adabiyotshunosligiga bag‘ishlangan ishlarda ko‘proq sifat vazifasini bajaruvchi, sifatlovchi vazifasida kelgan barcha til faktlarini epitet deb tushunadilar. Epitet ko‘plab ingliz olimlarining tadqiqot obyekti bo‘lib, ular bu haqida o‘z qarashlarini bayon etganlar. Jumladan, D.Kristal, J.Mayers hamda D.Vukaylar epitetga quyidagicha ta‘rif beradilar: “Epitet – bu otni tavsiflovchi va u bilan muntazam bog‘langan so‘z yoki ibora¹¹”. Ushbu ta‘rifga asoslanib, ularni epitetni nutq figurasi deb talqin etganmi yoki uslubiy vosita, buni aniqlashning iloji yo‘q, chunki ular epitetni predmetni tavsiflovchi so‘z yoki ibora sifatida ta‘riflaydilar. Tilshunos olim Xinmei Wang esa epitetni har bir tilda o‘ziga xos xususiyat sifatida keng tarqalgan nutq figurasidir, deb ta‘riflaydi¹². Epitet badiiy asardagi voqea-hodisalarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol tasvirlab beruvchi vosita bo‘lib, asardagi obrazlilikni sezilarli darajada oshirib beradi. Epitetning uslubiy vosita ekanligi borasida ingliz tilshunoslari kabi rus olimlarining fikrlari ham ikkiga bo‘lingan bo‘lib, A.A.Potebnya va Y.M.Skrebnevlar epitetni uslubiy vosita emas, balki fikrga mazmundorlik beruvchi nutq figurasi, deb talqin etadilar¹³. Yuqorida keltirilgan nazariyalarni bir guruh tilshunos olimlar (A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, I.R.Galperin, I.V.Arnold va boshqalar) fikrlariga qarama-qarshi deb aytishimiz mumkin, ularning ta‘kidlashicha, epitet uslubiy vosita sanaladi. O‘zbek tilshunos olimlaridan A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov hamda H.Rustamovlar epitetni sifatlashning bir turi deb ta‘riflaydilar. Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, “epitetni oddiy aniqlovchidan farqi shundaki, u ayni paytda tasvirlanayotgan narsaning so‘zlovchi nuqtai nazarida muhim hisoblangan tomonini ta‘kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ayniqsa, she‘riy asarlarda bu ko‘proq talab qilinadi¹⁴”. Ko‘rinib turibdiki, epitetlar haqidagi tushunchalar ham turli tilshunoslar tomonidan turlicha ko‘rsatiladi. Shulardan kelib chiqib, epitet haqidagi tushunchaga aniqlik kiritish va uning nutqda hosil bo‘lish sabablarini tahlil etib chiqish monografik tadqiqotni talab etadi deyish mumkin. Shuningdek, shu vaqtgacha bu hodisaning ko‘rinishlari tasnif etilmaganini hisobga olib, unga ham alohida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. Bu borada, avvalo, epitet kabi ko‘p qirrali tushunchani tadqiq etish uchun ushbu nutq figurasiga qanday ta‘rif berish va hodisaning o‘zigagina xos bo‘lgan muhim xususiyatlarini o‘rganish juda muhimdir. Shubhasiz, epitet birinchi navbatda kontekstdagi obyekt yoki hodisaning eng muhim jihatlarini so‘z ma‘nosining belgi bildiruvchi semalaridan ma‘lumlarini reallashuviga asoslanib

¹⁰ Бен А. Стилистика и теория устной и письменной речи. – М., 1986. – С. 8-19.

¹¹ Crystal D. A Dictionary of Language. 2nd edition. University of Chicago Press, – Chicago, 2001. – P. 107; Myers J. D. Wuckasch. Dictionary of poetic terms. University of North Press Denton, – Texas, 2003. – P. 126.

¹² Wang Xinmei. Interpretation of Transferred Epithet by Means of Conceptual Integration Theory // Journal of Language Teaching and Research: Volume 4. 2013. – P. 1073.

¹³ Потебня А.А. Теоритическая поэтика. – М.: Академия, 2008. – С. 165; Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Астрель, 2003. – С. 139.

¹⁴ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 239-248.

qo'llanilishidir. Ularda so'z ma'lum ma'nosining ayrim semasi bilan tanlanib olinar ekan, hech vaqt yangisi orttirilmaydi.

Bobning ikkinchi fasli "Epitetning lingvistik tabiati" deb nomlanadi.

Epitetning nutq figurasi sifatida qo'llanilishi hamda lingvistik jihatlarini o'rganish, uni boshqa uslubiy vositalardan ajratib, tilimizda mavjud ifoda vositalari tizimidagi o'rnini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa sanaladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun, avvalambor, epitetning muhim, o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash zarur. Har qanday ifoda vositalarini lingvistik nuqtai-nazardan ko'rib chiqish, ushbu vositalarning morfologik va semantik jihatlarini tadqiq etishni va o'rganishni talab etadi. Epitetni o'rganishning ko'p asrlik tarixiga qaramay, uning muhim xususiyatlariga bo'lgan qarashlarda tilshunos olimlar orasida hali ham bir to'xtamga kelinmagan. Aksariyat tadqiqotchilar epitetning asosiy xususiyati sifatida uning semantik xususiyatlarini e'tiborga oladilar va buni epitet ta'rifining markaziga qo'yadilar¹⁵. Epitetga obyektning har qanday atributini aniqlovchi ifoda vositasi sifatida qarab, bir so'zga qo'shib, uning majoziy va ekspressiv ma'nosini oshirish va boyitish uchun qo'llaniladigan birikma tarkibidagi so'z¹⁶ deya ta'riflaydilar. Boshqa tadqiqotchilar semantik xususiyat qatoriga epitetga xos bo'lgan yana bir muhim jihat morfologik tahlilini qo'shish zarur deb hisoblaydilar¹⁷. Shu bilan birga, boshqa tilshunoslar epitet va oddiy aniqlovchi orasiga chegara qo'ysalar, ayrim tilshunoslarning fikricha, har qanday epitet oddiy aniqlovchi bo'lib, predmetning belgisini ta'riflaydi, deb ko'rsatadilar¹⁸. Ularning fikricha, epitet o'zining morfologik va semantik xususiyatlarini birlashtirgan holda izohlayotgan tushuncha mazmuniga hech qanday qo'shimcha ma'no yuklamaydi, uning dastlabki nominativ mazmunini saqlab qoladi. Bizningcha, bu fikr haqiqatdan yiroq, chunki oddiy aniqlovchi narsaning bir belgisinagina aniqlashga xizmat qiladi. Epitet esa narsadagi turli xossalari, belgilar ichidagi alohida olingan bir belgini ham subyektiv, ham emotsional jihatdan aniqlashga xizmat qiladi. Zero, aniqlovchi belgini qayd etishdan iborat bo'lsa, epitet belgining subyektiv-emotsional bahosidan iborat. Epitetning muhim belgilarini aniqlashning yana bir yondashuvi bu uning morfologik va sintaktik jihatdan ifodalanishini o'z ichiga oladi. Bu masalani tor nuqtai nazardan izohlagan tishunoslarning fikricha, epitet faqatgina sifat so'z turkumi bilan ifodalanishi mumkin¹⁹, deb aytilgan bo'lsa, boshqa bir guruh tilshunoslar ushbu hodisani har qanday morfologik kategoriya bo'yicha ifodalanishi mumkinligini bayon etadilar²⁰. Bizningcha ham shu fikr haqiqatga yaqin bo'lib, epitetlar faqatgina sifat so'z turkumi orqali emas, balki fe'l, ot hamda

¹⁵ Зеленецкий А. Эпитеты литературной русской речи. – М., 1913. – С. 6; Малаховский В.А. Эпитет Тютчева. – Чита, 1922. – С. 20; Шалыгин А. Теория словесности. – Петроград, 1916. – С. 37.

¹⁶ Зеленецкий А. Эпитеты литературной русской речи. – М., 1913. – С. 6; Малаховский В.А. Эпитет Тютчева. – Чита, 1922. – С. 20; Шалыгин А. Теория словесности. – Петроград, 1916. – С. 37.

¹⁷ Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка: пособие для студентов. – Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1960. – С. 13.

¹⁸ Краткая литературная энциклопедия. Т8. – М.: Советская энциклопедия, 1975. – С. 921-923.

¹⁹ Кузнец М.Д., Ю.М.Скребнев. Стилистика английского языка: пособие для студентов. – Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1960. – С. 13.

²⁰ Галперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. – С. 139.

ravish kabi boshqa soʻz turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, feʼl soʻz turkumidagi soʻzlar ham epitetga uchraydi va ushbu hodisaga duch kelgan paytda oʻz turkumini oʻzgartirmaydi, yaʼni feʼl turkumida qoʻllanaveradi. Yuqorida keltirgan taʼrifimizga koʻra epitetlar soʻz sememasining ayrim semalariga asoslanib namoyon boʻladi. Masalan, “*Bilishmaydiki, pul ham bolalaydi*” (Oybek) Bu gapdagi *bolalamoq* feʼli oʻz maʼnosining *koʻpaymoq* semasi bilan qoʻllangan. Bu feʼl asli maʼnosi uch semaga ega boʻlib, ular *nasl bermoq*, *koʻpaymoq* hamda *shox chiqarmoq* semalaridan iborat edi²¹. Lekin bu semalarning birinchisi va uchinchi nutqda oʻz oʻrnini topmagan. Feʼl maʼnosining bir sema bilan qoʻllanishi esa epitetni yuzaga keltirgan. Biz bu haqda epitetning morfologik jihatdan tasniflaganimizda yana mufassal toʻxtalib oʻtamiz. S.Gasparyan va N.Minasyanlar epitetning lingvistik jihatlarini aniqlashda uning lingvomadaniy xususiyatlarini ham tadqiq etish muhimdir, deb taʼkidlaydilar²². Ularning fikricha, epitetlarning lingvomadaniy xususiyatlari ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maʼlum muallifga xos epitetning yuzaga kelishi uning dunyoqarashi, obyektiv olamni bilishi va ruhiyati bilan bogʻliqdir. Ruhiyat esa xalqning tarixi hamda uning ruhiy olami bilan bevosita bogʻliq holatda shakllanadi. Shu jihatdan epitet xalqning tili, uning tarixi va ruhiy olamini oʻzida aks ettiradi. Agar, til xalq tarixi va psixologiyasining toʻla inikosi hisoblanadigan boʻlsa, uning faktlarini boshqacha talqin etish mumkin emas²³. Yaʼni badiiy adabiyotlardagi epitetlarni oʻrganish shu tilda soʻzlashuvchi xalqning tarixini va ruhiyat olamini oʻrganish demakdir. Bu uning tarixi uchun ham, psixologiyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Koʻrinib turibdiki, shaxs yoki narsaning muhim xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladigan epitetlar maʼlum bir til va madaniyatning oʻziga xos jihatlarini ifodalaydi. Epitetlar madaniy kontekstga qarab turli xil maʼnolarga ega boʻladi²⁴. Masalan, ingliz tilidagi *pig (choʻchqa)* leksemasi bilan yuzaga kelgan epitet bir madaniyatda ijobiy maʼnoga ega boʻlsa, boshqasida salbiy maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Ushbu maʼnolarni tushunish epitetning toʻliq lingvistik tabiatini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Ingliz adabiyotida mashhur Gomerning “Odessey” dostonida qoʻllanilgan *rosy-fingered dawn* epitetli birikmasi boshqa tillarga bevosita tarjima qilinmasligi mumkin boʻlgan oʻziga xos madaniy va lingvistik tasvirni oʻzida namoyon etadi. Epitetning oʻzigagina xos boʻlgan xususiyatlarini belgilashda aytib oʻtilgan yuqoridagi tamoyillarning tahlili shuni korsatadiki, ularning hech biri alohida olingan holda ushbu nutq figurasining har tomonlama va izchil tavsifini bera olmaydi. Demak, ana shu uch jihat: semantik xususiyatlar, lingvomadaniy xususiyatlar hamda morfologik ifodalanish usullari epitetning oʻzigagina xos muhim lingvistik belgilari boʻlib, faqat shu jihatlarning barchasini hisobga olgan holda unga toʻliq va izchil tavsif berish mumkin. Ayni shu xususiyatlar epitetni

²¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2023. – B. 523.

²² Gasparyan S., Minasyan N. Translating epithets in fiction: A stylistic study of semantic and pragmatic equivalence // ESBB. Volume9. Issue1. 2023. – P. 143.

²³ Покровский М.М. О методах семасиологии // Избранные работы по языкознанию. – М.: ИАН СССР, 1959. – С.32.

²⁴ Guzova A.V., Savitskaya N.V., Ivolina T.V., Dedova O.V. Stylistic device of the epithet of literary text as a means of teaching students a second foreign language // Philology: scientific researches. Volume 12.2020. – С. 124.

tilimizdagi boshqa uslubiy vositalardan ajratish va tilning ifoda vositalarining umumiy tizimidagi o‘rnini aniqlash uchun zarur va yetarlidir.

Ishning ikkinchi bobi “**O‘zbek va ingliz tillarida epitetning morfologik jihatdan tasnifi**” deb nomlanib, uch fasldan tarkib topgan. Birinchi faslda qiyoslanayotgan tillardagi ot adyektivatsiyasidagi epitetlar haqida fikr yuritiladi.

Otlardagi epitetlar faqat belgi anglatishi bilan yuzaga chiqadi. Bunda ot turkumiga oid so‘z sifat turkumi vazifasiga ko‘chishi ham, ot turkumi vazifasida qolishi ham mumkin. Har qanday holda ham ot o‘z ma’nosining mantiqiy bo‘lagi, ya’ni belgi bildiruvchi semasi bilan reallashgan bo‘ladi. Chunki mantiqan o‘ylab qaralsa, belgisiz narsa, narsadan tashqarida belgi bo‘lishi mumkin emas. Shunga ko‘ra, otdan anglashilgan har qanday narsa o‘z belgilariga ega bo‘ladi. Nutqda otlar tanlanar ekan, uning belgisi orqali boshqa otdan anglashilgan narsa belgisini izohlashni maqsad qilib olinadi. U shu belgisi bilangina qo‘llanadi. Ot turkumidagi so‘z faqat belgi ifodasi bilan qo‘llanar ekan, ularda ikki xil holatni kuzatish mumkin: sifat so‘z turkumiga ko‘chib belgi bildirish, ot so‘z turkumida qolib belgi bildirish. Shunga ko‘ra o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham epitetlarning ot so‘z turkumida yuzaga kelishini ikki ko‘rinishga bo‘lish mumkin: 1) adyektivatsiyaga uchrash orqali epitetning yuzaga kelishi, 2) ot turkumida qolishi bilan epitetning yuzaga kelishi. Chog‘ishtirilayotgan tillarda ot so‘z turkumida epitetning yuzaga kelishini quyidagi modellar orqali yuzaga keladi:

Ot (adyektivatsiyaga uchrashi bn)+ot: *kumush tomchi, oltin yaproq, charos ko‘zlar; dragon eyes, spider arms, apple cheeks.* Otlarda epitetlar yuzaga kelar ekan, ular shu ot ma’nosining belgi bildiruvchi semasi bilan qo‘llangan bo‘ladi, ot ma’nosining nutq uchun tanlangan belgisini bildirib keladi. Otlarda epitetlarning yuzaga kelishi otlarning sifatlashishi, ya’ni adyektivatsiyaga uchrashi bilan amalga oshadi. Epitet uchun tanlab olingan ot belgi ifodalaydi va u epitetli birikma tarkibida nutqiy sifatlashishga uchraydi. Buni misollarda ko‘rib chiqsak:

Nafisaning charos ko‘zlarida sho‘x kulgi jilo qilayotgan, hozir qahqaha urishga tayyor ekani bilinib turardi (O.Yoqubov)

Keltirilgan misolimizda *charos* so‘zi epitet bo‘lib, *charos ko‘zlar* epitetli birikmasini hosil qilyapti hamda *ko‘z* so‘zining belgisini bildirib kelyapti. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra, *charos* so‘zining “meva (o‘rtapishar, yumaloq qora uzum)”, “go‘zal”, “qop-qora” kabi semalari mavjud.²⁵ Berilgan parchada esa *charos* epiteti ma’nosida “go‘zal”, “qop-qora” semalari reallashib, u shu semalar bilan sifatlashgan va ot so‘z turkumida epitetni yuzaga keltirgan.

Ingliz tilida ham epitetlar turdosh otlarda yuzaga kelishi mumkin, ya’ni o‘zbek tilida bo‘lgani kabi bu o‘rinda otlardagi epitetlar faqat belgi e’tibori bilan yuzaga chiqadi. Ushbu holatda ham ot o‘z ma’nosining belgi mantiqiy bo‘lagi, ya’ni belgi bildiruvchi semasi bilan reallashgan bo‘ladi. Otlarda adyektivatsiyaga uchrash bilan epitetlar yuzaga kelar ekan, shu ot ma’nosining belgi bildiruvchi semasi bilan qo‘llangan bo‘ladi. O‘zbek tilida ot ma’nosining nutq uchun tanlangan semasi asosan, rang, xususiyat, holat, shakl belgisini bildirib kelsa, ingliz

²⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – B. 479.

tilida rang, shakl va holat belgilarini ko‘plab uchratish mumkin. Quyidagi misolga e‘tibor qarataylik:

Young people with shining apple cheeks and starched lively costumes guide them through the houses, which have dirt floors, straight chairs, rough planks or boxes for beds, pumps outside, hearths for heating and cooking, outhouses (R.Silman, “Her Father’s Voice”)

Apple (*olma*) leksemasi atirgullilar oilasiga mansub ko‘pyillik mevali daraxt nomi. Ammo biz keltirgan jumlada, u *apple cheeks* epitetli birikmasini hosil qilib, o‘zining “red skin (qizil, qirmizi)” semasi bilan²⁶ ot so‘z turkumida epitetni yuzaga keltiryapti. *Apple* meva nomi rang anglatuvchi belgisi bilan sifatlashgan va ot so‘z turkumida epitet hosil bo‘lgan.

Chog‘ishtirilayotgan tillarning har ikkisida keltirilgan misollarning barchasida nutqda o‘xshatish qurilmasining subyekt bo‘lagini etalonga qiyoslab ifodalash emas, balki etalondagi belgi bilan aniqlashtirib ifodalash zaruriyati bo‘lganligi uchun, o‘xshatish shakli qo‘llanmagan. Shunga ko‘ra, nutqda o‘xshatish qurilmasi emas, uning ellipsisga uchragan holati, ya‘ni epitetli birikma qo‘llangan. Yuqoridagi modellardan tashqari o‘zbek va ingliz tillarida ot turkumida qolish bn qaratqichli birikmaning qaralmishida va qaratqichida (*dilginamning to‘lqini, clown’s smile*), ingliz tilida ot turkumida qolish bn of-predlogi (of-phrase) orqali (*a sky of sapphire*), o‘zbek tilida ot turkumida qolish bn obyektli birikmaning tobe bo‘lagida ham (*uchqun sachratib*) epitetlar yuzaga kelishi mumkinligi aniqlangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “O‘zbek va ingliz tillarida epitetlarning sifat so‘z turkumida ifodalanishi” deb nomlanadi.

Ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan epitetlarni sifatlash deb qaralar ekan, bu ularni sifat turkumiga xos deb e‘tirof etilishidandir. Lekin biz yuqorida epitetlarni faqat sifat turkumidagina emas, balki ot, fe‘l turkumlarida ham yuzaga kelishini ta‘kidlab o‘tdik. Shunga qaramasdan, epitetlarni sifatlash deb, sifat turkumiga qo‘yilishida ham ma‘lum darajada asos bor. Chunki o‘zbek tilida epitetlar sifat turkumida ham uchraydi. Bunda otlarning sifatlashuvi va sifatlarning semantik o‘zgarishi bilan yuzaga keladigan epitetlar katta ahamiyatga ega. Nutq uchun tanlanishda e‘tibor deyarli ularga qaratilgan bo‘lib, ular badiiy tilni bezash xususiyatiga egaligi bilan ham alohida ahamiyatga molikdir. Ingliz tilida esa epitetning sifat so‘z turkumida yuzaga kelishi o‘zbek tiliga qaraganda anchagina sermahsul bo‘lib, so‘z epitetga uchraganda ularning semantik o‘zgarishi kuzatilmaydi. Aksincha, o‘zbek tilidan farqli ravishda epitetlar tub, yasama hamda qo‘shma sifatlarda ham yuzaga keladi.

S (yasama sifat) + O: *olovli davrim, tumanli o‘ylar, o‘tli yuragim*. O‘zbek tilida sifatlarda epitetlarning sodir bo‘lishi boshqa so‘zlarda epitetlarning sodir bo‘lishidan ba‘zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu turkumdagi so‘zlarda epitet sodir bo‘lar ekan, shu so‘z ma‘nosida emas, balki u shu so‘z o‘zagingning ma‘nosida kechadi. Shunday o‘zgarishga uchragan ega ma‘noli o‘zakka sifat

²⁶ Collins Online Dictionary and Thesaurus. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english> (murojaat sanasi: 15.02.2023); Merriam-Webster Online Dictionary and Thesaurus. <https://www.merriam-webster.com/thesaurus> (murojaat sanasi: 15.02.2023).

qo‘shimchasining ma‘nosi ilova qilinib, sifat epitet holda reallashadi. Sifat turkumidagi so‘zlarda epitet, asosan, ularning o‘zagida namoyon bo‘ladi, ya‘ni sifat qaysi turkumdan yasalgan bo‘lsa, shu turkumda uning o‘zagi ma‘nosining ma‘lum semasi bilan qo‘llangan holda sifatlik qo‘shimchasini olgan sifat turkumidagi so‘zni yasagan bo‘ladi: *She‘r bilan, soz bilan-tor bilan, Bugun-chi ne kezar o‘tli qoningda*. (A.Oripov) Bu she‘rdagi *o‘tli qoningda* epitetli birikma bo‘lib, epitet *o‘tli* sifatida sodir bo‘lgan. Bu sifatning *o‘t* o‘zagi aslida ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, uning “olov, otash”, “alanga, yolqin”, “cho‘g‘”, “energiya, quvvat” kabi sememalari mavjud, berilgan misolda ushbu leksema “energiya, quvvat” semasi bilan reallashib *-li* sifat yasovchi qo‘shimchasini olgan. Ya‘ni *o‘tli* sifati o‘tga ega ma‘nosi bilan emas, balki “energiyaga, quvvatga ega” ma‘nosi bilan reallashgan. Shunga ko‘ra u epitetdir. O‘zbek tilida epitet sodir bo‘lgan sifatlar, asosan, yasama sifatlardir. Tub sifatlarda epitetlar deyarli kuzatilmaydi. Bunda yasama sifatlar ham otdan sifat hosil qiluvchi *-li, -iy*; fe‘ldan sifat yasovchi *-q* vositasi yordamida yasalgan bo‘ladi. Ingliz tilida esa epitetlar tub sifatlarda ham yuzaga keladi.

A (tub sifatlar orqali)+N: *extravagant nightmare, clever look, brilliant friend; Mr.Cowdrey took note of this fact, and gifted us with a clever look at the event* (A.Cowdrey, Nature) Keltirilgan misoldagi *a clever look* epitetli birikma bo‘lib, epitet *clever* tub sifatida sodir bo‘lgan. Ushbu leksemaning “nimble (epchil)”, “resourceful (idrokli)”, “marked with ingenuity (oqillik bilan)” kabi semalari mavjud bo‘lib²⁷, keltirilgan atributiv birikmada u mavjud sememasining “marked with ingenuity (oqillik bilan)” semasi bilan reallashgan. Shunga ko‘ra epitet tub sifatda ushbu ma‘no bilan yuzaga kelgan. Bundan tashqari ingliz tilida epitetlar yasama sifatlar (*pearly beauty*), qo‘shma sifatlar (*bird-bright eyes*), qo‘shma sifatarning bir necha xil modellari (*coal-black eyes, angelic-faced man*), sifatning qiyosiy (*a fiercer sky*) hamda ortirma (*the happiest smell*) darajalarida ham yuzaga kelishi mumkinligi aniqlangan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “O‘zbek va ingliz tillarida epitetlarning fe‘l va ravish so‘z turkumlarida ifodalanishi” deb nomlanadi.

Epitetlar belgi ifodalash ehtiyoji bilan yuzaga chiqadi. Epitetlarning shu xususiyatiga ko‘ra fe‘l turkumida yuzaga chiqmaydi, deb ko‘rsatish ham mumkin. Chunki fe‘llar ish-harakat va holat kabilarni bildiradi. Biroq chog‘ishtirilayotgan tillarda epitetlar fe‘llarda ham kuzatiladi. Bunda ham belgi e‘tiborda tutiladi. Tahlillarimiz davomida o‘zbek tilida epitetlarni tub va yasama fe‘llarda (*oy suzadi, oltinlandi terakning uchi*), ingliz tilida esa hozirgi zamon sifatdoshi (Participle I, *waltzing lamp-posts*) hamda o‘tgan zamon sifatdoshida (Participle II, *harassed eyes*) hosil bo‘lishi mumkinligini kuzatdik.

O‘zbek tilida epitet ravish turkumida ham yuzaga kelishi mumkin. Bizga ma‘lumki, epitetlarni sifatlashning bir ko‘rinishi deb qaralib, ularni asosan sifat turkumiga oid qilib qo‘yilgan. Bu qarash mutlaq to‘g‘ri emasligini epitetni sifatdan

²⁷ Collins Online Dictionary and Thesaurus. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english> (murojaat sanasi: 7.03.2023); Merriam-Webster Online Dictionary and Thesaurus. <https://www.merriam-webster.com/thesaurus> (murojaat sanasi: 10.03.2023).

tashqari ot, fe'l so'z turkumlarida ham yuzaga kelishi mumkinligi misolida ko'rib chiqdik. Epitet ravish turkumida ham sodir bo'lishi mumkin. Epitetlarning ravish turkumida reallashishi bu hodisaning ko'proq nutqiy hodisa ekanligi bilan bog'liq holatda yuzaga chiqadi: *Yoshlik ham o'tadi benishon, besas* (A.Oripov)

Biz yiqqan misollar tahlili davomida ingliz tilida epitetlarni ravish so'z turkumida yuzaga kelishini kuzatmadik. Ammo sifat so'z turkumida yuzaga kelgan epitetlar ma'nosini ravish so'z turkumidagi leksemalar orqali kuchaytirilib qo'llanilishi mumkinligini aniqladik. Masalan, *atrociously unfunny jokes* (J.Wain, Hurry on Down); Keltirilgan misolda epitet *unfunny* sifat turkumidagi leksemada yuzaga kelgan bo'lib, ravish turkumidagi *atrociously* so'zi ma'no kuchaytirish vazifasini bajaryapti.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbek va ingliz tillarida epitetning semantik tabiati va lingvomadaniy jihatlari qiyosiy tahlili**" deb nomlanib, unda epitetlar chog'ishtirilayotgan tillarda semantik tabiatiga va lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra tahlilga tortiladi.

Uchinchi bobning birinchi fasli "Hayvon nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar" deb nomlanadi.

Epitetlarni semantik tabiatiga ko'ra o'rganish murakkab bo'lib, ushbu tamoyil tilshunos olimlar tomonidan juda ham kam tadqiq etilgan. Uni aniq va izchil ifodalash epitet va ta'riflanayotgan obyekt o'rtasidagi semantik munosabatlarni chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Epitet va uning o'z subyekti bilan semantik aloqaga kirishishi muhim bo'lib, epitetning qanday mazmun bilan reallashishi uning semantik tabiatini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Semalar so'zda ifodalangan tushunchaning xususiyatlari bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan so'z ma'nosining shunday tarkibiy qismlari sifatida tushuniladi. Ular so'zning semantik tarkibini tashkil qilib, so'zning kontekstual ma'nolarini tahlil qilish va taqqoslash asosida aniqlanadi. O'zbek va ingliz tillarida epitetlar turli mazmun asosida reallashadi va har qanday holatda ham epitet o'z subyekti bilan birga aloqaga kirishadi. U o'z subyekti bilan atributiv birikmada yoki predikativ qo'shilmada bo'lishi mumkin. Olib borgan izlanishlar davomida o'zbek va ingliz tillarida hayvon nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar mavjud ekanligi aniqlandi. Bunday otlar yordamida yuzaga kelgan epitetlar o'zbek tilida holat anglatuvchi semasi bilan reallashsa, ingliz tilida epitet aniq otlar bilan birikma hosil qilganda shakliy belgi, mavhum otlar bilan qo'llanilganda holat semasi bilan reallashishini kuzatdik. Hayvon nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar o'zbek tilida ot adyektivatsiyasi orqali yuzaga keladi. Bunda ot holat anglatuvchi semasi bilan okkazional adyektivatsiyaga uchraydi. Masalan: *Uning ohu ko'zlarida na mag'rurlik, na bir boshqa ma'no bor edi* (Sh.Xolmirayev, Saylanma)

Berilgan misolda *ohu* so'zi epitet, uning "yovvoyi echki", "mahbuba", "nozlik, sergak" hamda "ma'sum" kabi semalari mavjud²⁸. Yuqoridagi jumlada *ohu* so'zi mavjud sememasining "ma'sum" semasi bilan reallashgan. Bu so'z ot so'z turkumidan sifat so'z turkumiga ko'chib, adyektivatsiyaga uchraganda yuqoridagi holat anglatuvchi semasini saqlab qolgan. *Ohu* epiteti ko'z sifatlanmishi bilan

²⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – B. 451.

birgalikda atributiv epitetli birikmani hosil qilgan hamda uning subyektini aniq narsani ifodalab kelgan. O‘zbek tilida hayvon nomlarini anglatuvchi otlar adyektivatsiyasidagi epitetlarning subyektini aniq ot ham, mavhum ot ham bo‘lishi mumkin. Har ikki holatda ham epitet holat anglatuvchi semasi bilan reallashadi.

Ingliz tilida ham epitetlar hayvon nomlari bilan reallashib, hayvonlarga tegishli bo‘lgan belgi va sifatlar insonlarga nisbatan ishlatiladi va voqea-hodisalarning obrazli tasviri uchun xizmat qiladi. Bunday epitetlar semantikasida, albatta, hayvon va unga tegishli otlar orqali reallashgan shakliy belgi yoki holat bildiruvchi semaga ega semema bo‘lishi shart. Muallifga kulgili yoki xunuk bo‘lib ko‘ringan inson tanasining biror bir a‘zosi hayvon nomlariga oid leksemalar orqali obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan:

The eyelids come down over his tortoise eyes as though to shut us all out (A.Wilson, The Old Man at the Zoo)

Berilgan misolda *tortoise* (*toshbaqa*) so‘zi epitet bo‘lib, uning “land animal (hayvon)”, “someone regarded as slow (sekin harakatlanadigan)”, “small, round, wrinkled (kichkina, dumaloq, ajinli)” kabi semalari mavjud²⁹. Yuqoridagi jumlada *tortoise* (*toshbaqa*) so‘zi mavjud sememasining “small, round, wrinkled (kichkina, dumaloq, ajinli)” semasi bilan reallashgan. Bu so‘z ot so‘z turkumidan sifat so‘z turkumiga ko‘chib, adyektivatsiyaga uchraganda yuqoridagi shakliy belgi anglatuvchi semasini, ya’ni toshbaqa ko‘zlarining tashqi xarakterli xususiyatini saqlab qolgan. *Toshbaqa* so‘zining subyektini *ko‘z* so‘zi bo‘lib, u aniq narsani ifodalaydi. Demak, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham hayvon nomlari bilan yuzaga kelgan epitetli birikmalar mavjud bo‘lib, qo‘llanish doirasiga ko‘ra ular ingliz tilida sermahsul. Chog‘ishtirilayotgan tillarning har ikkalasida ushbu turdagi epitetlar she’riy asarlardan ko‘ra nasriy asarlarda keng qo‘llaniladi va ular, asosan, atributiv epitetli birikmalar tarkibida yuzaga keladi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “O‘simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar” deb nomlanadi.

O‘simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar o‘zbek tilida, asosan, otlar adyektivatsiyasi bilan yuzaga kelsa, ingliz tilida otlar adyektivatsiyasidan tashqari sifat so‘z turkumida ham hosil bo‘lishi kuzatiladi. O‘zbek tilida bunday epitetlar semantikasida rang hamda holat ifodali semaga ega sememalar yuzaga kelsa, ingliz tilida rang ifodali semadan tashqari shakliy belgi anglatuvchi sema ham reallashadi. O‘simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlarning ingliz tilida holat anglatuvchi sema bilan reallashishi juda kam uchraydi. O‘zbek tilida *gul*, *g‘uncha*, *sunbul*, *binafsha*, *chuchmoma*, *anor*, *olma* kabi ingliz tilida esa *lily-white* (*liliya*), *rose*, *rosy* (*atirgul*), *greengage* (*renklod*), *tulip* (*lola*), *apple* (*olma*), *cherry* (*olcha*), *orange* (*apelsin*), *poppy* (*lolaqizg‘aldoq*), *pumpkin* (*oshqovoq*) kabi leksemalar orqali o‘simlik nomlari bilan epitetlar yuzaga keladi. Masalan:

Sochilgan sochingday sochilsa siring,

Anor yuzlaringni kimga tutasan? (A.Cho‘lpon)

²⁹ Collins Online Dictionary and Thesaurus. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english> (murojaat sanasi: 25.03.2023).

Ushbu misolda *anor*, ya'ni anordoshlarga mansub subtropik o'simlik nomini anglatuvchi so'z epitet bo'lib, uning "o'simlik", "qizil", "yumaloq" kabi semalari mavjud³⁰. Berilgan she'riy misrada esa *anor* so'zi *anor yuz* atributiv epitetli birikmasini hosil qilib, o'zining "qizil" rang ifoda etuvchi semasi bilan reallashgan. *Anor* epitetining sifatlanmishi *yuz* so'zi bo'lib, *anor yuz* atributiv epitetli birikmasi hosil bo'lgan.

Ingliz tilida *anor* leksemasi bilan yuzaga kelgan epitetli birikmalar o'rniga *orange* (apelsin) meva nomini anglatuvchi so'zlar bilan yuzaga kelgan atributiv epitetli birikmalarni ko'plab uchratish mumkin.

There was Trevor, Robin Hood, and a Big Moose in which Trevor and Robin rode the big moose together, bareback, and, Trevor Climbs a Tree, which depicted the boy standing on a high branch of an evergreen tree, snow-capped mountains in the background, broad, red smile, orange face, stocking cap, two strong legs spread wide (M.Snell, Prosthetic life)

Yuqorida keltirilgan misolda *orange* leksemasi epitet bo'lib, u o'z sememasining rang ifoda etuvchi semasi bilan reallashgan. Berilgan misolda epitet aniq ot turkumidagi *face* (*yuz*) so'zi bilan atributiv epitetli birikma hosil qilgan. Asar muallifi daraxt ustida o'tirgan, quyosh nurlaridan yuzlari qizarib, to'q sariq tusga kirgan bolakayning tasvirini *orange face* epitetli birikmasi orqali obrazli ifodalab bergan. O'simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham sermahsul qo'llaniladi. Ingliz tilida o'simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar, asosan, atributiv epitetli birikma tarkibida sifatlovchi vazifasida keladi. O'zbek tilida esa ushbu turdagi epitetlar atributiv epitetli birikma tarkibida sifatlovchi, predikativ qo'shilma tarkibida predikat vazifasida ham kelishi mumkin.

Uchinchi bobning uchinchi faslida chog'ishtirilayotgan tillarda "Kimyoviy element nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar" ning semantik tabiati tahlilga tortilgan.

O'zbek va ingliz tillarida kimyoviy element nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlarda rang ifoda etuvchi semadan tashqari holat va xususiyat anglatuvchi semalar ham yuzaga kelishini mumkinligi aniqlangan. Kimyoviy element nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar o'zbek tilida, asosan, otlar adyektivatsiyasi bilan yuzaga kelsa, ingliz tilida otlar adyektivatsiyasidan tashqari sifat so'z turkumida ham sodir bo'lishi mumkin. Kimyoviy element nomlari bilan hosil bo'lgan epitetning yuzaga kelishi o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham o'xshatish konstruksiyasining qisqarishi, ya'ni ayrim komponentlarining implisit ifodalanishi bilan bog'liq holda kuzatiladi. O'xshatish konstruksiyasining asos komponenti etalon komponentda implisit ifodalanib, o'xshatish formanti konstruksiyasidan tushib qolsa, konstruksiya epitetli atributiv birikma holida qayta shakllanadi. Uning, ya'ni o'xshatish konstruksiyasining etalon komponenti esa epitetli birikmadagi epitet bo'lib qoladi. Kimyoviy element nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar o'zbek tilida *temir*, *oltin*, *kumush*, *po'lat*, *simob* ingliz tilida esa *silver* (*kumush*), *gold* (*oltin*), *copper* (*mis*), *iron* (*temir*), *lead* (*qo'rg'oshin*), *platinum*

³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – B. 116.

(*platina*) kabi kimyoviy element nomlarini anglatuvchi leksemalar bo'lishi mumkin. Bularni misollar yordamida ko'rib, tahlil qilib chiqamiz:

Oltin yaproqlarga boqib o'yladim

Umrimning bir yilin o'tib ketganin... (Mirhojiddin Mirzo)

Keltirilgan she'riy parchada *oltin* kimyoviy element nomini anglatuvchi ot turkumidagi so'z epitet bo'lib, ushbu so'z mavjud sememasining "sarg'ish" hamda "jiloli" semalari bilan reallashgan. *Oltin* so'zi okkazional adyektivatsiyaga uchrab, rang ifoda etuvchi semasinigina saqlab qolgan hamda *oltin yaproq* atributiv epitetli birikmasini hosil qilgan. *Oltin* epitetining sifatlanmishi *yaproq* so'zi bo'lib, u aniq otni ifodalaydi hamda sifatlanmishning rang xususiyatini anglatib keladi.

Orange flowers foam from window boxes into the river. Scoops of red and gold sun dimple the blue water (M.James, My Dagger)

Ushbu misolda sifat so'z turkumiga oid *gold* leksemasi epitet bo'lib, u o'z sememasining "bright yellow (och sariq)" rang ifoda etuvchi semasi bilan reallashgan. *Gold* epiteti *sun* (*quyosh*) sifatlanmishi bilan atributiv birikma hosil qilib, quyoshning jonli oltin va qizil tUSDagi rangini anglatib kelgan. Asar muallifi daryo bo'yidagi go'zal va sokin tabiat manzarasini quyoshning oltin tUSDagi sariq nurlari bila hamohang tarzda *gold sun* atributiv epitetli birikmasi orqali obrazli tasvirlab bergan. Yuqorida keltirilgan epitet guruhlaridan tashqari biz yiqqan misollarda ayollar bezakli taqinchoqlari nomlari (*marjon ko'zlar, bead eyes*), kichik asbob nomlari bilan yuzaga kelgan epitelar (*qalam qosh, champagne-bottle shoulders*) o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham shakliy belgi bildiruvchi sema bilan, osmon jismlari (*yulduz chehrali, moon face*) va mato nomlari (*atlas tabiat, silky hair*) bilan yuzaga kelgan epitetlar holat anglatuvchi sema bilan, qimmatbaho tosh nomlari (*ruby lips, zumrad dalalar*) bilan yuzaga kelgan epitetlar rang ifoda etuvchi semasi bilan reallashishi mumkinligini aniqlangan.

Uchinchi bobning to'rtinchi fasli "Chog'ishtirilayotgan tillarda epitetlarning lingvomadaniy xususiyatlari (hayvon, o'simlik, kimyoviy element va osmon jismlari nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar misolida)" deb nomlanadi.

Til turli xalqlarning dini, urf-odati, dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularni birlashtiruvchi yagona vositadir. Shu bilan birga, til har bir millatning o'tmishi, buguni va hatto kelajagini ko'rsatib turuvchi oynadir. Demak, xalq tarixi ham til birliklari vositasida o'z aksini topadi. Har qanday lug'aviy birlik (so'z, iboraning)ning ma'no tomoni, avvalo, milliy xususiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Epitetlar ham olamni bilishning eng qadimiy usullaridan biri bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tajribalari, milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar asosida vujudga keladi. Shuni aytish muhimki, epitet tom ma'noda ma'lum bir xalqning milliy tafakkur tarzi va tasavvurlarini namoyon etadi. Shuningdek, epitetlar borliqni idrok etish jarayonini kengaytirishga, voqea va hodisalarni ta'sirchan hamda obrazli qilib tasvirlashga, muloqotni muvaffaqiyatli bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Epitetlarni o'rganish orqali muayyan xalqning madaniy ma'lumotlari va milliy-madaniy qarashlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Masalan, meva deganda o'zbeklar *olma, anor, uzumni*, inglizlar esa *apelsin, banan, olma, mandarinni* ko'z oldiga keltirishadi. Chunki ayni shu mevalar har ikki xalqning

dasturxonida to'kin-sochin bo'lib, ko'proq o'sha yerning o'zida yetishtiriladi. Buning ta'siri ijtimoiy hodisa bo'lgan tildagi lisoniy birliklarda ham o'z aksini topgan. Chog'ishtirilayotgan tillardagi hayvon, o'simlik, kimyoviy element va osmon jismlari nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar har ikki xalqda turli xil bo'yoqlarga ega bo'lib, bu mazkur xalqlar obrazli tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Turli tizimli tillar guruhiga kiruvchi o'zbek va ingliz tillarida yuzaga kelgan epitetlar so'z boyligida tarqalishi, ko'rinishi hamda semantik jihatdan tasniflanishi nuqtai-nazaridan mutlaqo milliy va o'ziga xosdir.

XULOSA

1. So'z ma'nosidagi har qanday ma'juziy ko'chish okkazional ma'no hosil bo'lishi epitet deb qaralmaydi. Epitetlar so'z ma'nosining belgi bildiruvchi semalaridan ma'lumlari reallashuviga asoslanib qo'llanishidir. Ularda so'z ayrim ma'nosining ayrim semasi bilan saylanib olinar ekan, hech vaqt yangisi orttirilmaydi.

2. Epitet ma'nolarida doimo subyektiv munosabat o'z ifodasini topadi. Epitetlar sintagma tarkibida kelib, o'z subyekt bilan atributiv birikmada bo'lishi ham, predikativ qo'shilmada kelishi ham mumkin. Ular atributiv birikma tarkibida sifatlovchi, predikativ qo'shilma tarkibida esa predikat vazifasida keladi. Badiiy aniqlovchi atamasi epitet bilan ayni bir hodisani anglatmaydi. Chunki aniqlovchi sintaktik turkumlanish bo'lib, u gap bo'lagi jihatidan chegaralangan. Epitetlar esa badiiy til vositasi bo'lib, gap bo'lagi jihatidan chegaralanmagandir.

3. Epitetlar so'zdagi ma'no o'zgarishi undagi semalarning ayrimi boshqa semalar bilan almashmasligi, balki miqdor jihatidan kamayishi bilan metaforalardan, sifat turkumidan tashqari ot, fe'l, ravish turkumlarida tarqalganligi va ma'no tuzilishida o'zgarishga uchraganligi bilan sifatlashlardan ham farqlanadi.

4. Chog'ishtirilayotgan tillarda epitetlarning turlicha ko'rinishlari mavjud. O'zbek tilida so'z epitetga uchragandan so'ng o'z ma'nosining faqatgina birgina yoki birdan ortiq semasi bilan reallashishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga, o'z turkumida qolishi, yoki boshqa turkumga ko'chishiga ko'ra turkumi ko'chgan va o'z turkumida qolgan epitetlarga ajraladi. Ingliz tilida esa epitet va ta'riflanayotgan ot o'rtasidagi bog'liqlikning barqarorlik darajasiga ko'ra yakka tartibdagi mualliflik (original) va odatiy turlarga hamda epitet va ta'riflanayotgan ot o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishga ko'ra mantiqiy bog'langan va mantiqiy bog'lanmagan epitetlarga bo'linadi.

5. O'zbek tilida epitetlar ot so'z turkumida, sifat so'z turkumida, fe'llarda va juda kam hollarda ravishlarda ham yuzaga kelsa, ingliz tilida ot so'z turkumi, sifat so'z turkumi, hozirgi zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshining predlog bilan qo'llanishi va ayrim hollarda hozirgi zamon sifatdoshining predlog bilan qo'llanishi orqali hosil bo'ladi.

6. Chog'ishtirilayotgan tillarda epitetning ot so'z turkumida yuzaga kelishi: otning adyektivatsiyaga uchrashi va o'z turkumida qolishi orqali hosil bo'ladi. O'zbek tilida epitet sodir bo'lgan sifatlar, asosan, yasama sifatlardir. Tub sifatlarda epitetlar deyarli kuzatilmaydi. O'zbek tilida epitetlar sifat turkumidagi so'zlarda

o‘z aksini topar ekan, epitet asli shu so‘zning o‘zagi bo‘lgan otda kechgan bo‘ladi. Bunda u ot ma‘nosining ma‘lum semasiga asoslanib, *-li*, *-iy*, *-q* qo‘shimchalari vositasida yasaladi. Ingliz tilida esa epitetning sifatlarda yuzaga kelishi o‘zbek tiliga qaraganda anchagina sermahsul bo‘lib, ular tub sifatlardan, yasama sifatlardan, qo‘shma sifatlardan va ularning bir necha modellari hamda sifatning qiyosiy va orttirma darajalarida hosil bo‘ladi.

7. O‘zbek tilida fe‘llarda epitet yuzaga kelar ekan, ko‘pincha fe‘l o‘zagi ma‘nosining ma‘lum semasi bilan fe‘l yasovchi qo‘shimcha ma‘nosi qo‘shilishidan fe‘l semantikasi kelib chiqqan bo‘ladi. Fe‘l epitetlar o‘zak so‘zdan iborat bo‘lsa, shu so‘zning ma‘lum semasi reallashishi natijasi hisoblanadi. Ingliz tilida esa epitetlar o‘zak fe‘lga *-ing* hamda *-ed* suffikslarini qo‘shilishidan yuzaga kelgan hozirgi zamon sifatdoshi (Participle I) va o‘tgan zamon sifatdoshida (Participle II), ularning predlogli shakllarida hosil bo‘ladi. Bunda epitet o‘zak fe‘l sememasining ma‘lum sema va semalari orqali reallashadi. O‘zbek tilida epitetlar ravish so‘z turkumida yuzaga keladi va bu ko‘proq nutqiy hodisa ekanligi bilan bog‘liq holatda namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida ravish so‘z turkumidagi leksemalar sifat turkumida yuzaga kelgan epitetlarning ma‘nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

8. Chog‘ishtirilayotgan tillarda hayvon, o‘simlik, kimyoviy element, ayollar bezakli taqinchoqlari, kichik asbob, mato, qimmatbaho tosh hamda osmon jismlari nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar guruhi mavjud bo‘lib, ular turli semantik tabiat bilan reallashadi. Har ikki tilda ushbu guruhdagi epitetlarning yuzaga kelishi o‘xshatish konstruksiyasining qisqarishi, ya‘ni ayrim komponentlarning implisit ifodalanishi bilan bog‘liq holda kuzatiladi.

9. O‘zbek tilida hayvon nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar aniq va mavhum otlar bilan qo‘llanilsa holat anglatuvchi semasi bilan, ingliz tilida esa bunday turdagi epitetlar aniq ot turkumidagi leksemalar bilan birikma hosil qilganda shakliy belgi anglatuvchi, mavhum ot turkumidagi so‘zlar bilan birikma hosil qilganda esa holat anglatuvchi semasi bilan yuzaga keladi. O‘zbek tilida o‘simlik nomlari bilan yuzaga kelgan epitetlar rang ifoda etuvchi hamda holat anglatuvchi semalari bilan reallashsa, ingliz tilida ular shakliy belgi anglatuvchi, rang ifoda etuvchi va ba‘zan holat anglatuvchi semalari bilan hosil bo‘ladi. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi kimyoviy element, ayollar bezakli taqinchoqlari, kichik asbob, osmon jismlari, mato hamda qimmatbaho tosh nomlari bilan ham yuzaga kelgan epitetlar ham turli mazmunlar, ya‘ni shakliy belgi bildiruvchi, holat anglatuvchi, xususiyat anglatuvchi hamda rang ifoda etuvchi semalar bilan reallashadi.

10. O‘zbek va ingliz tillarida yuzaga kelgan epitetlar tarqalishi va ko‘rinishlari nuqtai nazaridan mutlaqo milliydir. Epitetlar xalqning madaniyati, milliy tafakkur tarzi, dunyoqarashi hamda tasavvurlarini o‘zida namoyon etib, har ikki tilda turli xil ma‘no bo‘yoqlariga ega. Shunga ko‘ra, o‘zbek va ingliz tillarida yaratilgan she‘riy va nasriy asarlardagi epitetlarning struktur-semantik tabiati va lingvistik-badiiy mohiyatini ochib berish, lingvomadaniy xususiyatlarini izohlash hamda qiyosiy aspektda tadqiq etish jahon tilshunosligi uchun hamisha dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02
AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

MAMADJANOVA MAFTUNAKHON UKTAMOVNA

**A CONTRASTIVE STUDY OF EPITHETS IN UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES**

**10.00. 06 – Comparative Study of Literature, Contrastive Linguistics and Translation
studies (philological sciences)**

**ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in PHILOLOGY**

Fergana – 2025

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the number B2023.1.PhD/Fil3167

The Dissertation has been prepared in Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and the information and Education portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Gafurova Surayyo Ulugbekovna**
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),
Associate professor

Official opponents: **Nabiyeva Dilora Abduxamidovna**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Vositov Valijon Abdurahobovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization: **Uzbekistan State University of World Languages**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of Scientific Council DSc.03 / 30.12.2019. Fil.05.02 on awarding scientific degrees at Ferghana State University on "6" 03 2025, at 8:00. (Address: Ferghana city, Burhoniddin Marghinoniy street, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@mail.uz)

The dissertation can be viewed at the Information-Resource Center of Ferghana State University (registered under number 467). Address: 100151, Ferghana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

The abstract of the dissertation was distributed on "26" 02 2025
(Registry record No. 6 dated "26" 02 2025)



S.M.Muminov
Chairman of Scientific Council
Awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

M.T.Zokirov
Secretary of the Scientific Council,
Awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences, Professor.

A.Sabirdinov
Chairman of the scientific Seminar at the
Scientific Council, Awarding scientific
degree, Doctor of Philological Sciences,
Professor.

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

The actuality and significance of the dissertation work. While language phenomena were initially studied within the system-structure paradigm in global linguistics, in recent times, due to the development of social consciousness and the growing life and scientific needs of humanity, there has been a particular focus on studying language through a comparative approach. The study of interlingual relations using new scientific methodologies and modern fields such as sociolinguistics, psycholinguistics, and linguoculturology has become a crucial issue. The results of scientific research have revealed that there are a number of unexplored problems in studying linguistic phenomena of different languages in connection with their morphological-structural and semantic aspects, as well as their interconnections with folk thinking, worldview, beliefs, and culture. One such issue is a comparative study of the semantic, morphological, and linguocultural features of epithets in Uzbek and English languages. This issue has become particularly relevant in the current era of globalization.

In world linguistics, epithets are recognized as a literary device that fully embodies social-historical, educational-moral, and literary information, as well as semantic and linguocultural aspects. They, along with other linguocultural units such as metaphors, similes, proverbs, and idioms, are considered invaluable treasures of the language. They are consistently preserved in the memory of language speakers and exist eternally as an integral part of culture. Therefore, the study of epithets in Uzbek and English linguistics using modern methodologies and methods, drawing scientific and theoretical conclusions about their linguistic nature and role in literary texts, developing relevant recommendations, analyzing them from semantic and linguocultural perspectives, and conducting a comprehensive study of their logical, linguistic, and morphological-structural features are considered important issues awaiting resolution.

In our country today, numerous studies have been conducted on the comparative diachronic and synchronic analysis of the grammatical, lexical-semantic, linguopoetic, and linguocultural features of other languages. Particular attention has been paid to "developing scientific research and innovation³¹". However, comprehensive and in-depth studies have not been conducted to reveal the lexical-semantic features of epithets within different languages, which are actively used in language and speech, serve as the most important expressive means in fiction, and have become an integral part of folk culture. Analyzing the linguistic possibilities that contributed to their emergence, investigating their morphological aspects, and determining the sources, patterns of formation, and direct connection with folk culture remain areas that require further research. Given that the current social era demands solutions to these problems, the creation of such works is not only important for the field of linguistics but also for literary

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

studies, cultural studies, history, aesthetics, ethnography, and indeed, for world culture and social thought as a whole. This research contributes to the fulfillment of the tasks outlined in a series of normative legal documents, including the President of the Republic of Uzbekistan's Address to the Oliy Majlis on December 20, 2022, the Resolution of October 4, 2019, on the wide celebration of the 30th anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language," the Decree of October 21, 2019, "On measures to fundamentally enhance the prestige and status of the Uzbek language as the state language," the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 610 of August 11, 2017, "On measures to further improve the quality of foreign language teaching in educational institutions," the Resolution No. PQ-4307 of May 3, 2019, "On additional measures to improve the effectiveness of spiritual and educational activities," the Decree No. PF-6097 of October 29, 2020, "On approval of the Concept for the development of science until 2030," and the Decree No. PF-60 of January 28, 2022, "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026," as well as other normative legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development. The research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and ways of their implementation".

The level of study of the problem.

Scientific and theoretical ideas related to the research topic can be found in the works of foreign linguists such as A.A. Potebnya, V.M.Zhirmunsky, Y.M. Skrebnev, A.N.Veselovsky, M.D.Kuznes, I.R.Galperin, M.Greviss, T.A.Burkova, N.M.Naer, V.I.Korolkov, S.Gubanov, T.Fadeyeva, T.M.Guseva³² and others. Scholars are divided into two groups when defining an epithet. While linguists such as A.A. Potebnya and Y.M. Skrebnev interpret an epithet not as a trope but as a figure of speech that gives meaning to thought, A.N.Veselovsky, V.M.Zhirmunsky, I.R.Galperin, I.V.Arnold, and others describe an epithet within the framework of tropes. They interpret the epithet as a phenomenon of the formation of a transferred meaning and emphasize the emergence of a new

³² Grevisse M. *Le bon usage // Grammaire française*. – Ed. Duculat A Geuthner, 1951; Галперин И.Р. *Очерки по стилистике английского языка*. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958; Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. *Стилистика английского языка: пособие для студентов*. – Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1960; *Краткая литературная энциклопедия*. Т8. – М.: Советская энциклопедия, 1975; Веселовский А.Н. *Историческая поэтика*. – М.: Высшая школа, 1989; Гусева Т.М. *Сложный эпитет как стилеобразующая единица художественного пространства И.А.Бунина*. – М., 2001; Буркова Т.А. *Stilistik der deutschen Sprache*. *Стилистика немецкого языка: Учебно-методическое пособие*. – Уфа, 2002; Скребнев Ю.М. *Основы стилистики английского языка*. – М.: Астрель, 2003; Потеня А.А. *Теоритическая поэтика*. – М.: Академия, 2008; Жирмунский В.М. *Теория литературы. Поэтика. Стилистика*. – М.: Либроком, 2009; Губанов С.А. *Эпитет в творчестве М.И.Цветаевой: семантический и структурный аспекты*. Самара, 2009; Наер Н.М. *Стилистика немецкого языка: учеб. пособие*. – М.: Высшая школа, 2011; Фадеева Татьяна Михайловна. *Сложный эпитет ядерная единица художественного пространства в русском языке*. – М., 2014.

semantic component. The views of these scholars on the epithet differ sharply from each other.

